




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIK FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI DASTURI

TALIM YO'NALISHI:

60320100 – JURNALISTIKA (BOSMA OAV JURNALISTIKASI)

Buxoro – 2025

Tuzuvchilar: B.S.Jamilova – O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori f.f.d
Masharipova T. - O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası
professorı, f.f.d.

Taqrizchilar: Sulaymonov Sh.S. – “Buxoronoma” gazetasi muharriri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jo‘rayev O. – Buxoro viloyati hokimining axborot siyosati
masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot kotibi.

Mazkur dastur asosida bitiruvchining mutaxassislik fanlaridan egallagan bilim, malaka va ko‘nikma darajalari DTS talablari doirasida kompleks tarzida baholanadi.

BuxDU filologiya fakulteti dekani:
2025 yil “ _____ ” _____



Q.R.To‘xсанov

“O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası mudiri v.v.b.:
2025 yil “ _____ ” _____ B.E.Kilichev

KIRISH

Mazkur dastur 60320100 – Jurnalistika (Bosma OAV jurnalistikasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanidan Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi. Dasturda ta'lim yo'nalishida 4 yil davomida talabalarga o'qitilgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlari qamrab olingan.

JAHON JURNALISTIKA ASOSLARI VA TARIXI

Xalqaro jurnalist kasbi bilimlar, malaka va xususiyatlar taqozo etuvchi mehnat turi sifatida. Kasbiy oriyentatsiya, kasbni tanlash sabablari. Jurnalistik kasb genezisi va taraqqiyoti. Xalqaro jurnalist kasbining o'ziga xosligi. Uning universallik xarakteri. Xalqaro jurnalistika kasbining jamiyatdagi o'rni va roli.

Axborot - jurnalistikaning asosiy quroli, vositasi sifatida. Zamonaviy matbuot nazariyalari. Jurnalistika prinsiplari. Jurnalistik faoliyat erkinligi. Jurnalistikada tasirchanlik va samaradorlik. Jurnalist ommaviy axborot vositasi subyekti sifatida. Axborot bozori hamda media boshqaruv xususiyatlari.

Jahon mass media tizimi va uning mavjud bo'lish muhiti. Mass media tizimining yaxlitlik xususiyati. OAVning differensiyalashuv va integratsiyalashuv jarayoni, bu jarayonlarga tasir ko'rsatuvchi tizimiy omillar. Mass media tizimiga auditoriya omilining ta'siri.

Jahon jurnalistikasi kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida. Jahon jurnalistikasi tarixi umumiy kursini davrlashtirish. Bosma so'z tarixining ozodlik, kishilik jamiyatida insonparvar, umumdemokratik qonun-qoidalarni qaror toptirish uchun kurash tarixi bilan uzviy bog'liqligi. Matbuot va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Xorijda tarixan ikki yo'nalishdagi matbuotning – demokratik va hukmron tabaqalarning manfaatlarini himoya qiluvchi matbuotning tarkib topishi. Xorijiy demokratik matbuotning umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ravnaq toptirishdagi o'rni va ahamiyati. Xorijda nashr qilingan eng muhim davriy matbuot nashrlarining yo'nalishi, mazmuni, ular bilan hamkorlik qilgan mashhur publisist va jurnalistlarning faoliyati. Jurnalistika ijtimoiy institut, faoliyat turi, kasb-hunarlar majmui sifatida.

JURNALISTIKA HUQUQI VA ETIKASI (ETIKA)

Jahon jurnalistikasida umuminsoniy qadriyatlar va jurnalist kasb odobi muvozanati. Jurnalistning kasb etikasini o'rganish tarixidan (o'zbek va jahon jurnalistikasida kasb etikasi masalalari misolida). Kasb etikasi kodekslari. Fotojurnalistikada kasb etikasi meyorlari. An'anaviy va audiovizual jurnalistikada kasb etikasi. Internet jurnalistikasida kasb etikasi. Fuqarolik jamiyati institutlarini yoritishda etika masalalari. Ekologiya jurnalistikada kasb etikasi. Bolalar jurnalistikasida etika masalalari.

OAVda faoliyat ko'rsatadigan jurnalistning huquqlari, qonunlarga qay darajada amal qilishi va kasbiy burchi, uning qonun, jamiyat va xalq oldidagi majburiyatlari nimadan iborat ekanligi, OAV qonunchiligining davlat va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, uning xalqaro huquqiy meyorlarda hamda O'zbekiston Respublikasi OAV qonunchiligida aks etishi haqida. So'z va fikr erkinligi tushunchalari. Ularning xalqaro va milliy qonunchilikda kafolatlanganligini o'rganish. Axborot zaxiralari hamda ulardan foydalanishning huquqiy kafolatlari. Axborot bozori va bu sohada xizmat ko'rsatishning qonunchilikda asoslanishi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qonunlarning ahamiyati. OAV to'g'risida xalqaro huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasining axborot qonunchiligidagi ixtisoslashgan hujjatlar. Rivojlangan davlatlar huquqiy qonunchiligining asoslari.

PUBLITSISTIKA VA ESSEISTIKA

Publitsistika janrlari, publitsistika tarixi, paydo bo'lish omillari haqida ma'lumotga ega bo'lish. Publitsistik ijodning yangi usul va shakllari, ulardan foydalana olish. Esseistika janri va uning namunalari, shakl va mazmuni hamda essenavis adiblar. Bosma OAVdagi esse namunalari tahlil qilish, jurnalistik ijodda ulardan foydalanish. Publitsistika va esse namunalari tahlil qilish, uning OAVdagi dolzarb ahamiyati. Badiiy publitsistik janrlar tarixi, xarakteristikasi. Ocherk va uning turlari. Yo'l ocherki, muammoli ocherk va portret ocherki kabilarning ijtimoiy-badiiy xususiyatlari. Feleton hamda pamflet janrining

taraqqiyot tendensiyalari. Safarnoma, sayohat jurnalistikasining asosi. Xat publitsistikasining o'ziga xos ijtimoiy ahamiyati. Essening kompozitsion erkinligi.

OAV SOTSILOGIYASI VA PSIXOLOGIYASI

Jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolari ommaviy kommunikatsiyalarning barcha jihatlari bilan bog'liqligi, unda OAVda faoliyat ko'rsatuvchi jurnalistning shaxs sifatidagi o'rni va professional mahorat masalalari, jurnalist ruhiyati, ichki dunyosining kasbiy faoliyati jarayonida o'zgarishi va rivojlanishi qonuniyatlari, uning jamiyatni axborot bilan taminlashga ko'rsatadigan ta'siri, zamonaviy psixologiya fani talablari nuqtai nazaridan bugungi jurnalist kasbining o'ziga xosligi, ommaviy kommunikatsiya, interaktiv jarayonlarda jurnalist individualligi hamda auditoriya bilan jurnalist shaxsi o'rtasidagi psixologik munosabatlar va ularning jurnalistika samaradorligini taminlashdagi ahamiyati. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining psixologik vazifalari, ularning jurnalistlar faoliyati va dunyoqarashining o'zgarib borishiga ko'rsatadigan tasiri, jamoatchilikning bilish psixologiyasi, axborot olish, qayta ishlash va tarqatishda bo'lg'usi jurnalistning psixologik tayyorgarligi va tahlili. Bu jarayonlarda jurnalistning ruhiy kechinmalari (fe'l-atvor, xayajoni, kayfiyati, tarbiya, dunyoqarash) uning kasbiy burchi, mas'uliyati va majburiyatlari, jurnalist psixologik madaniyati.

MATBUOTDA YANGILIKLAR VA TAHLILYIY JANRLAR

Yangiliklar tushunchasi, tuzilmasi, tarkibiy qismlari, yangilikning turlari, xabar, axborot yangilik, reportaj, intervyu, hisobot singari axboriy janrlar turlari va ularning shakli va mazmuni. Yangilik yozishning xronologik, klimatik, to'ng'irilgan ehrom shakllarini, yangilik uchun kirish tanlashni, yangilikni tahrir qilish. Reportaj, intervyu, suhbat, hisobotning janriy xususiyatlari. Umumiy axborot oqimidan yangiliklarni ajrata olish, faktlarning muhimlik darajasini aniqlashi, axborot janrlari turlarini amalda qo'llay olish. Tahliliy janrlar: maqola, korrespondensiya, xat janrlarining xususiyatlari. Faktlarni saralash va tekshirish, tahliliy janrlar materiallarini tahrir va tahlil qilish, tahlil uchun obekt topa bilish. Sharh yozishda kasb etikasi qoidalariga amal qilishni talabalar yozgan sharhlar

asosida tahlil qilish. Intervyu-monolog, Intervyu-axborot, Intervyu-dialog, Eksklyuziv intervyu kabilarning janriy xususiyatlari.

AXBOROT XIZMATI MARKETING VA MENEJMENTI

O'zbekiston Respublikasida OAV faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash O'zbekistonda bosma va audiovizual OAV bozori. Bozor segmentlari, nashrlar turlari. Tahririyat, studiyalarning huquqiy maqomi. Tahririyatning iqtisodiy masuliyati, javobgarligi. Mediabiznes, mediaekonomika, menejmentning asosiy tushunchalari. OAVni moliyalashtirish va iqtisodiy mustaqilligini taminlash masalalari.

Mediabiznesni olib borishning tashkiliy-huquqiy shakllari. OAV da marketing va menejment prinsiplari. Samarali marketing kompaniyasi. Mediabozorda raqobat. Reytinglar va mediabozorda yangilikning ochiqligi. Raqobatbardoshlik va ommabop ko'rsatkichlari. Yangi raqobat sharoitida marketing va menejment olib borish qiyinchilik tomonlari va muammolari. Reytinglar va mediabozorda yangilikning ochiqligi. Raqobatbardoshlik va ommabop ko'rsatkichlari. Tahririyat marketing va menejmenti. Tahririyat biznes-rejasi. Biznes-rejalashtirishning maqsad va turlari. Tahririyatdagi moliyaviy oqimlar.

AUDIOVIZUAL JURNALISTIKA

Radiojurnalistikaning ommaviy axborot vositalari tizimidagi o'rni va roli. Radio eshittirishning vazifalari, tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari, ifodaviy vositalari. Radio jurnalistika turlari va janrlari. Xalqaro radioeshittirish. Radio eshittirish auditoriyasi, tili, uslubi, ifodaviy vositalari, jurnalist mahorati. Radio auditoriya va uni o'rganish. Radiojurnalistik material. "Talaba to'lqini" radiostudiyasida amaliy mashg'ulot. Ovoz bilan ishlash.

Televideniyeining jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari. Telejurnalistika tarixi. Televideniyeining ommaviy axborot vositalari tizimida tutgan o'rni. Televideniyeida jurnalistik faoliyat turlari. Jahon televideniyesi. Telejurnalistika janrlari. Teleko'rsatuv tayyorlash texnologiyasi. Nodavlat televideniyeilar. Televideniyeida kasb odobi va iqtisodiyot masalalari. Mustaqil O'zbekistonda kino-tele-foto publitsistikaning rivojlanishi. Kino, tele, fotopublitsistikaning

o'ziga xos xususiyatlari. Kino-, tele-, fotopublitsistika tarkibi va jurnalist- muallif qahramon tanlash muammosi. Fotografiya asarining estetikasi, kommunikatsion xizmatlar, kinotelepublitsistikada o'rni.

OAV TILI, USLUBI VA TAHRIR

OAV tili, matbuot tili, radio tili internet tili. OAV rivojlanishining umumiy tamoyillari. Zamonaviy xalqaro jurnalistikaning maqsad vazifalari. Jurnalistikaning tarixiy tiplari. Elektron OAVning paydo bo'lishi va uning evolyusiyasi. OAVning to'rtinchi hokimiyat sifatidagi nazariyasi va amaliyoti. Zamonaviy axborot agentliklari va ularning vazifalari. Ishlash metodlari, tasnifi. Yangi kommunikatsiya tartibining o'rgatilishi. Internetning paydo bo'lish va bugungi kundagi faoliyati haqida. Jurnalistik matnni yaratish va qayta ishlash qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarni talabalarda shakllantirish, jurnalistik asarni tahlil va tahrir qilish metodikasini egallash. Adabiy asar matnidan matbuot, radio va televideniya foydalanishga tayyorlash jarayonida tahrirchilik ishi usullari. Axborotlarning zichligi, ta'sirchanligi va tahliliyligi jihatidan ajralib turuvchi OAV materiallari bilan tahrir obyekti sifatida ishlash. OAV sharoitlarida tahrirchilik ishining ijtimoiy mazmunini va adabiy tahrir hamda jurnalistik materialning adabiy sifatini takomillashtirish jurnalist kasbining ajralmas qismi ekanligi. Tahrirchilik ishi g'oyaviy, ilmiy va adabiy tamoyillarning birligi sifatida namoyon bo'lishini turli ommaviy muloqot kanallari sharoitlarida (gazeta, radio va televideniya) tahrirchilikning o'ziga xos tomonlari mavjudligi.

IXTISOSLASHGAN JURNALISTIKA

Ekojurnalistika tushunchasi va uning vujudga kelishi. Taraqqiyot bosqichlari. OAVda ekologik mavzuni yoritish muammosi. O'zbekistondagi mavjud ekologik muammolar: global iqlim o'zgarishining mamlakatimizga ta'siri, Orol muammosi, ichimlik va sug'orish suvlarining tanqisligi, bioxilma- xillikning yo'qolishi, cho'llanish, daraxtlarning kesilishi, havo va suvning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, chiqindilar muammosi, ekologik madaniyatning yetarli emasligi. Barqaror rivojlanish bo'yicha O'zbekistonning qonunchilik asosi. Orol dengizi havzasida barqaror rivojlanish muammolari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari

hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan Nukus deklaratsiyasi. O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi. Atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan BMT konferensiyasi. "Barqaror rivojlanish" tushunchasining paydo bo'lishi. "Rio+20" Barqaror rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasi. OAV ko'zgasida ekologik nazorat. Ekologik jurnalistikada stereotiplar.

SAN'AT JURNALISTIKASI

San'at jurnalistikasining mazmun mohiyati, uning yo'nalishlari, teatr tarixi. Jurnalistik ijodning teatr san'ati sohasidagi ma'lumotlarni bilishi va ulardan foydalana olishi. San'at jurnalistikasi nazariyasi. Teatr va san'atningning yetuk ijodkorlari, vakillari to'g'risida OAVda chiqish. Bosma OAVdagi san'at namunalarini tahlil va jurnalistik ijodda ulardan foydalana olish. San'at jurnalistikasi namunalarini tahlil qilish, OAVda uning dolzarb ahamiyati. San'atni yoritishdagi OAV platformasi. Radio-televideniya san'at turlarini yoritish. San'at mavzusini yoritadigan jurnalist quroli. Matbuotdan teatr va san'at mavzusidagi maqolalarni sharhlash.

XALQARO SHARH MAHORATI

Xalqaro sharh mahorati fanining nazariy va amaliy sohalarda erishilgan asosiy yutuqlari, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari. Xalqaro sharh tushunchasi va mohiyati, xalqaro sharhning taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy ko'rinishlari, xalqaro sharhga qo'yiladigan talablar, xalqaro jurnalistlarning axloqiy me'yorlari, xalqaro sharhlovchilarning pozitsiyasi, ixtisoslashuvi, siyosiy sharhlovchilar, iqtisodiy sharhlovchilar, sport sharhlovchilari hamda sharh asoslari. Sharh sintetik janr. Sharh kompozitsiyasi va hajmi. Sharh bosh maqola sifatida. Sharh turlari. Ochiq sharh. Pardalangan sharh. Sharhlovchi shaxsi, pozitsiyasi. Mashhur xalqaro sharhlovchilar tajribasi. Internet OAV sharhidagi zamonaviy tendensiyalar. Xalqaro sharhlovchi faoliyatining etik jihatlari.

MEDIATA'LIM VA MEDIASAVODXONLIK

Mediasavodxonlik va axborot madaniyatini baholash, axborot (matn)ni tahlil qilish, axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma'naviy, madaniy immunitetini shakllantirish. Zamonaviy mediasavodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoq, internet va media olamning ijobiy jihati, internet va axborot texnologiyalari. Axborot va ijtimoiy tarmoqlardan turli yolg'on va tahdid kabi axborot tarqatishda foydalanish, ilmiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash talab etuvchi axborotdan qochishning yuzaga kelishi. Global axborot zamonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish. Ma'lumot, muloqot tushunchasi, media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlari, axborot manbalari va ehtiyojlarini aniqlash, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini baholash, axborot (matn)ni tahlil qilish savodxonligini oshirish, axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi mediasavodxonlikka oid ma'naviy-madaniy immunitetini shakllantirish. Ommaviy axborot vositalari va media zamonga xos: "raqamli", "kompyuter", "vizual", "texnologik", "kommunikatsion", "media", "axborot", "ommaviy madaniyat" va "texnokratiya" kabi tushunchalarni anglagan holda foydalanish madaniyati

MUTAXASSISLIK FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVINI O'TKAZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONI

1. Mutaxassislik fanidan Yakuniy davlat attestatsiyasi yozma ish shaklida o'tkaziladi.
2. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun tayanch iboralardan tuzilgan savollar majmuasi attestatsiyadan oldin belgilangan tartibda talabalarga yetkaziladi.
3. Attestatsiya biletlari (4 ta savoldan tashkil topadi) fakultet dekani va kafedra mudiri tomonidan imzolanib, muhrlangan konvertlarda DAK raisiga topshiriladi.
4. Yakuniy davlat attestatsiyasidagi yozma ish 3 soat (180 minut) davomida

o'tkaziladi,

5. Yozma ishlarni tekshirish, taqrizlash va baholash 100 ballik tizimda (har bir savolga 25 ball) amalga oshiriladi.

- savolga to'liq javob berilgan, fikr mantiqiy yaxlitlikda izchil bayon qilingan, savolga shaxsiy nuqtai nazardan asosli fikr bildirilgan bo'lsa -22-25 ball;

- savolning mohiyati yoritilgan, uni misollar va boshqa tushunchalar bilan bog'lashga harakat qilingan, fikrlar bayonida izchillikka ma'lum darajada amal qilingan, mantiqiy yaxlitlik qisman buzilgan, ayrim imlo va grammatik xatolar bulsa -18-21 ball;

- savolning mohiyati to'liq yoritilmagan, fikrlar bayonida ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, mantiqiy yaxlitlikka to'liq erishilmagan hamda ayrim imlo, grammatik va uslubiy xatolar bo'lsa -13-17 ball;

- yuqoridagi talablar bajarilmagan, qo'pol imloviy, grammatik va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan yoki savolga javob yozilmagan bo'lsa 0-12 ball oralig'ida baholanadi:

6. Barcha (4 ta) javoblarga qo'yilgan ballar yig'ilib, mutaxassislik fani bo'yicha bitiruvchining umumiy bali aniqlanadi.

Fan bo'yicha savollar

1. Axborot – jurnalistikaning asosiy quroli, vositasi sifatida.
2. Samarali kommunikatsiya jarayonini tashkil etish tamoyillari.
3. Matbuotva jurnalistika atamaları, mohiyati, vazifalari va tizimi.
4. Sharh janrining xususiyatlari va kompozitsiyasi.
5. Reportaj janrining xususiyatlari va ko'rinishlari.
6. "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalining faoliyatida M.Behbudiyning o'rni.
7. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazetavajurnallarning bugun uchun ahamiyati.
- 21 8. Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti.
8. XVII-XVIII asrda Angliya siyosiy jurnalistikasi.
9. Internet jurnalistikasida kasb etikasi.
10. Yangilik, xabar va ma'lumotning bir-biridan farqini tushuntiring.
11. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniyat va san'at sohasida qanday o'zgarishlar yuz berdi?.
12. Intervyuning janriy xususiyatlari haqida fikr yuriting
14. So'z va fikr erkinligitushunchalari hamda ularning xalqaro va milliy qonunchilikda kafolatlanganligini o'rganish.

- 22 Teatr va matbuot.
- 23 Abdulla Avloniyning publitsistik maqolalarini tahlil qilish.
- 24 XVII asrda Fransuzmatbuotining taraqqiyoti.
- 25 Hisobot janri ta'rifi va xususiyatlari.
- 26 Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Cho'lpon kabi adiblarning san'at, madaniyat ma'rifatni targ'ib qilish yo'lidagi mashaqqatli hayoti aks etgan spektakllar haqida qanday ma'lumotga egasiz?
- 27 Media va axborotni yaratish hamda undan foydalanish.
- 28 Jahon mass-media tizimi va uning mavjud bo'lish muhiti.
- 29 Axborot janridagi material qanday savollarga javobni aks ettirishi kerak?
- 30 Teatr jurnalistikasi kommunikativ tizimning harakatga keltiruvchi kuch.
- 31 Abdulla Qodiriyning hajviy publitsistikasini tahlil qilish.
- 32 Ilk milliy matbuot nashrlarining yuzaga kelishi.
- 33 Verbal va noverbal kommunikatsiya turlari.
- 34 Klimatik shakldagi yangiliklarni tahlil qilish.
- 35 Teatr – ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy va g'oyaviy tarbiya maktabi.
- 36 Qadimgi Yunoniston, Rim va O'rta asr Yevropasida kommunikatsiya vositalari.
- 37 O'zbek Milliy akademik drama teatri – O'zbekistondagi eng birinchi va yirik teatrlardan biri.
- 38 Voqea joyida reportaj tayyorlashning muhim xususiyatlari.
- 39 Login tushunchasi. Avtorizatsiya tushunchasi. Informatsion urushga tayyorlanish va olib borish.
- 40 Sharh janrining tuzilishiga ko'ra turlari.
- 41 Ichki kommunikatsiyalar tizimining samaradorligini baholash mezonlari qanday?
- 42 Yangilik, xabar va ma'lumotning bir-biridan farqi.
- 43 Fitrat publitsistikasini o'rganish.
- 44 Jadidlarning milliy gazeta chiqarish uchun qilgan harakatlari. "Taraqqiy" gazetasining paydo bo'lishi.
- 45 Sharhning boshqa janrlar, jumladan, maqola va hisobot bilan o'xshash va farqli jihatlari nimalardan iborat?
- 46 Yangilik yozish jarayonida jurnalist voqea-hodisaning ishtirokchisi sifatida..
- 47 Ijtimoiy tarmoqlarda san'atkorlar haqidagi maqolalarni tahlil qilish.
- 48 Kommentariy, obozreniye va obzorning bir-biridan farqi nima?
- 49 Og'zaki publitsistika (notiqlik san'ati) mashhur notiqlarning asarlari XVII-XVIII asrlarda Yevropa davriy matbuot paydo bo'lishining sharoitlari.
- 50 Yangiliklar janrini aniqlash.
- 51 Musiqa va amaliy san'atining OAVda yoritilishi.
- 52 Xitoy matbuoti tarixi taraqqiyoti bosqichlari.
- 53 Abdulla Avloniy va teatr deganda nimani tushunasiz?
- 54 Tahliliy jurnalistika
- 55 Mediamarketing – OAV faoliyatini ta'minlovchi vosita sifatida.
- 56 XX asr ommaviy axborot taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

- 57 Qadimgi Sharqda protojurnalistika.
- 58 PR va maqsadli auditoriya. PR faoliyatini strategik rejalashtirish va boshqarish.
- 59 Tahliliy janrlarda mavzu, fakt va fikr uyg'unligi.
- 60 O'zASdagi san'atga oid maqolalarni tavsiflash.
- 61 Yaponiya matbuoti tarixidan.
- 62 Korrespondentsiyada muammo qo'yish.
- 63 Ekojurnalistika tushunchasi va uning vujudga kelishi.
- 64 Axborot xurujitushunchasi. Axborot xuruji avj olgan sharoitda sog'lom g'oyalar uchunkurash tamoyili.
- 65 Koreya matbuoti paydo bo'lishi va taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari.
- 66 Maqola janri xususiyati va kompozitsiyasi.
- 67 O'zbekistondagi mavjud ekologik muammolar va ularning OAVda yoritilishi.
- 68 Jurnalistika va axborot olish imkoniyatlari. Olish imkoni cheklangan axborotlar va davlat sirlari.
- 69 Jurnalistikada universallashtirish va ixtisoslashuv.
- 70 Okeaniya mamlakatlari va Avstraliya matbuotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari.
- 71 O'zbekistonda opera va balet teatr tarixining boshlanishiga kim asos solgan?
- 72 Sharh bosh maqola sifatida qanday qismlardan tarkib topadi?
- 73 Alisher Navoiy nomli katta teatr (DAKT) qachon tashkil etilgan va u qanday teatr?
- 74 Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yoritishda jurnalist etikasi.
- 75 Mustaqillik davri o'zbek matbuotidagi mustaqillik mavzuidagi publitsistik maqolalarni tahlil qilish
- 76 Global iqlim o'zgarishi masalalarining OAVda yoritilishi.
- 77 Multimedaviy reportajning o'ziga xosligi.
- 78 Sho'rolar matbuotining Ikkinchi jahon urushi va undan so'nggi davrlari (1941-1991-yillar).
- 79 Mediasavodxonlik va axborot madaniyati rivoji hamda jamiyatdagi ahamiyati
- 80 Sharhning turlariga ko'ra tasniflang (ochiq, pardalangan, noixtiyoriy)
- 81 Mustaqillik davri O'zbekiston jurnalistikasi. Yangi jamiyatga mos matbuoti tizimining yuzaga kelishi.
- 82 Bolalar jurnalistikasida etika.
- 83 Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.
- 84 Muammoni aniqlashda sharhning asosiy xususiyatlari qanday?
- 85 XX asrning 50-60-yillardagi o'zbek publitsistikasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish..
- 86 Multimediaviy storitelling va uning internet jurnalistikasidagi o'rni.
- 87 Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar?
- 88 O'zbekistonda gender tengligining qonuniy asoslari.

- 89 O'tgan asrning 70-80-yillardagi o'zbek OAV tizimida ixtisoslashgan jumallar ko'lamini o'rganish..
- 90 Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat.
- 91 Imijning kognitiv xususiyati deganda nimani tushunasiz?
- 92 O'zbekistonda davlat ekologik tashkilotlari faoliyatini ilgari surish.
- 93 Ocherk janri va unga qo'yiladigan talablar.
- 94 Yangiliklarning yangi formati (listikl va taymlayn misolida).
- 95 Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari.
- 96 Sharh yozishda journalist amal qilishi lozim bo'lgan kasbiy qoidalar qanday?.
- 97 Esse uchun mavzu vaqahramon tanlash. Esse tahlili
- 98 Datajournalistika (ma'lumotlar jurnalistikasi) da axborot uzatish usul va vositalari.
- 99 Axborot xizmati tashkilot imijini qanday mustahkamlashi mumkin?
- 100 Medialarning ijtimoiy mazmuni. Kiberterrorizm.
- 101 Badiiy publitsistik janrlar haqida ma'lumot.
- 102 O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari.
- 103 Ochiq sharhning munosabat bildirilishiga ko'ra o'ziga xos jihatlari qanday?.
- 104 Gender tengligi masalasini OAVda yoritilishi muammolari.
- 105 Ocherk-badiiy publitsistikaning yetakchi janri sifatida.
- 106 Ijtimoiy media shakllari. Texnika madaniyati
- 107 Sharhda muharrir yoki muallif maqsadlari qay tarzda namoyon bo'ladi?.
- 108 Yangilik boshqa jurnalistik janrlar uchun asos sifatida. Auditoriyaning yangilikka bo'lgan qiziqish va ehtiyoji.
- 109 Xat-epistolyar publitsistika .Xat janri tahlili.
- 110 Media maydon va internet imkoniyatlari?
- 111 Jahon ommaviy axborot vositalari yangiliklari qabul qilgan olti savol — "kim?", "nima?", "qaerda?", "qachon?", "nega?", va "qanday qilib?"axborotning asosiy unsurlari sifatida.
- 112 Esse uchun mavzu vaqahramon tanlash.
- 113 Muammoli ocherk nima?.
- 114 "O'zbek Milliy akademik drama teatri" nomi qachon berilgan va qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
- 115 Komp'yuter o'yinlari – manqurtlik vositasi?
- 116 O'zbekistondagi mavjud ekologik muammolar qaysi internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq yoritiladi?
- 117 Lavha-badiiy publitsistika janri sifatida
- 118 O'zbekiston hududida birinchi professional teatr jamoasi qachon tuzilganva u haqida nimalarni bilasiz?
- 119 Axborotni tekshirishning zamonaviy usullari.
- 120 O'lim yangilik bo'lishi mumkinmi? Yangiliklarda ijobiy va salbiy axborotlar salmog'i..
- 121 Longrid multimedaviy jurnalistikaning alohida janri sifatida.
- 122 Yo'l ocherki(safarnoma) haqida ma'lumot bering?.

- 123 Medialarning ijtimoiy mazmuni. Tarmoq odob axloqi. (Infoetika).
- 124 Tasviriy san'atvahaykaltaroshlik san'atining OAVda yoritilishi.
- 125 Internet jurnalistikasida storimep va uning o'ziga xos jihatlari.
- 126 Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.
- 127 "Truppa" deganda nimani tushunasiz va u qanday ma'no mohiyatga ega?
- 128 M.Behbudiyning "Sayohat xotiralaridan" publitsistik asarini tahlil qilish.
- 129 Feleton janrining o'ziga xos xususiyatlari.
- 130 Axborot olishni kafolatlaydigan qanday qonunlarni bilasiz?
- 131 Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar. Virtual o'yinlarning asoratlari.
- 132 Chor Rossiyasining mustamlakasi teatr sohasida qanday ta'sir qilgan?
- 133 Jurnalistikada so'z erkinligini himoya qilishning xalqaro va milliy asoslari.
- 134 Pamphlet haqida ma'lumot?
- 135 Media savodxonlikni qanday oshirish mumkin?
- 136 O'zbekistonda reklama qonunchiligi haqida nimalarni bilasiz?
- 137 Badiiy va publitsistik esselarning farqli jihatlari.
- 138 Media madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar.
- 139 An'anaviy OAV, Internet va ijtimoiy tarmoqni kuzatib borish zarurati.
- Axborot xizmatlari yaqin ko'makchi.
- 140 Jurnalistlarni akkreditatsiya qilish qaysi qonunlar orqali tartibga solinidi.
- 141 Mediata'lim nima? Mediasavodxonlik-chi?.
- 142 Reportajda ma'lumotlar ichidan yangilikni ajrata olish ko'nikmasi.
- Jurnalist voqea joyida.
- 143 Dezinformatsiya qanday maqsadlarga xizmat qiladi.
- 144 Karim Bahriyev esselarini o'qib tahlil qilish.
- 145 Esseistika haqida fikr yuriting?.
- 146 Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi evolyutsiyasi va dialektikasi..
- 147 O'zbek Milliy akademik drama teatri O'zbekistondagi eng birinchiva yirik teatrlardan biri Bosma OAVdagi esse namunalarini tahlil qila bilish

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni. // Xalq so'zi. 2019. 07.01.

3. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakteristik strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi. O‘z.Res Prezidenti. 2017 yil 7 fevral PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so‘zi. 2019. 07.01.
4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 29 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 47 b.
6. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
7. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
8. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
9. Alekseyev K.A. Ilchenko S.N. Sportivnaya jurnalistika. Uchebnik dlya magistr. – Moskva., Izd-vo. “Yurayt”. 2016.
10. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
11. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta'minlashda milliy segment faoliyatining sosiologik jixatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2022.
12. Do‘stmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari. -T.: Yangi asr avlodi. 2007.
13. Do‘stmuhammad X. Xalqaro jurnalistikada gumanitar huquq va kasb etikasi. -T.: O‘zDJTU. 2011.
14. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013
15. Saidov. H. Matbuot – milliy manfaatlar himoyachisi. – Toshkent. 2009.
16. Sovremennaya periodicheskaya pechat Uzbekistana: sistema, tematika, tendensii i problemi funkcionirovaniY. – T.: NOFUz, 2006.

17. Jurnalistlar uchun qisqacha yuridik to'plam. Internyus – O'zbekiston "Fan", 2000.
18. Mo'minov F. Jurnalistika – ijtimoiy institut sifatida. T. 1998.
19. Milton D. Areopagetika. Rech o svobodepechati, obrashennaya k angliyskomu parlamentu /1644/ Kazan.
20. Saidov H, To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati T.: "Ma'naviyat", 2008.
21. Lug'at. (Jurnalistika, Reklama Pablik rileyshnz) – Toshkent.: Zar qalam. 2003.
22. Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarning huquqiy maqomi. – Toshkent., 2007.
23. Tertichniy A.A. Analiticheskaya jurnalistika: Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov. – M.: Aspekt-press, 2010.
24. Melnik G.S., Teplyashina A.N. Osnovi tvorcheskoy deyatelnosti jurnalista. – SPb.: Piter, 2006. – 272 s.
25. Mo'minov F.A. Jurnalistskoye rassledovaniye –T.: Universitet, 2002.
26. Journalism: new challenges, Edited by: Karen Fowler-Watt& Stuart Allan, 2013
27. Lazutina G.V.Osnovi tvorcheskoy deyatelnosti jurnalista. M. 2004.
28. The handbook of journalism studies, Edited by Karin Wahl-Jorgensen Thomas Hanitzsch, 2009.
29. Alfred Lawrenz Lowrenz, John Vivian. News Reporting and Writing.USA, Brown and Benchmark, 1996.-616p.
30. Mamatova Y. Sulaymonova S. Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorlik omillari. O'quv qo'llanma.T., 2015.
31. Melvin Mencher. News reporting and Writing. – Seventh edition. - USA, Brown and Benchmark, 1997, -712p.
32. Brian S.Brooks, George Kennedy, Daryl R.Moen, don renly. News Reporting and writing. Sixth Edition. (The Missouri group). USA: Bedford/st. Martin`s, 1999. – 579 p.

33. John r. Bender, Lucinda D. Davenport, Michail W. Darger, fred fedler "Writing and reporting for the Media" – New York Oxford university press. P-478.
34. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika (qayta ishlangan va to'ldirilgan o'quv qo'llanma). – T.: Tafakkur, 2011.
35. Qosimova N. Toshpoo'latova N. Shofayziyeva N. OAV tahririyatlari uchun o'quv qo'llanma. – T., 2008.
36. Qosimova N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining roli. – T.: "Turon iqbol", 2015 y.
37. Qosimova N. Global iqlim o'zgarishi va jurnalistika. – T.: "Turon iqbol", 2016 y.
38. Qosimova N. O.Isakov. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida nogironlik mavzusining yoritilishi. T.: YUNESKO", 2017 y.
39. Qosimova N. Internet nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida. – T.: "Turon iqbol", 2016 y.
40. Qosimova N. Onlayn jurnalistika. – T.: " Ozkitobsavdonashriyoti", 2020 y.
41. Qosimova N. Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalistika. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020 y.
42. Qurbon N. Tahliliy jurnalistika. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020 y.
43. Qurbon N., Saidov F. Jurnalistikaning huquqiy asoslari. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020 y.
44. Introduction to Journalism Student Activities Book, by Dianne Smith, MJE, 2010.
45. Phillip L.Harris, Television Production and Broadcast Journalism. 2th edition. The Good heard – Willcox Company, Inc, USA, 2012.
46. Carole Rich. Writing and Reporting News. A.Coaching method/Second edition. USA:Wadsworth Publishing Company,, 1991, -272p.
47. Karimov A.A. Audiovizual jurnalistika (telejurnalistika), T.: O'zDJTU, 2012.

48. Kuznetsov G.V. Tak rabotayet jurnalisti TV, "Aspekt Press", 2004g.
49. Kuznetsov G.V., Svik V.L., Yurovskiy A..YA.,Televizionnaya jurnalistika, M.: "Visshaya shkola" 2002g.
50. Masterstvo efirmogo vistupleniya, M.: 2002.
51. Muratov S.A., Televizionnaya obsheniya b kadre i za kadrom, M.: 2003.
52. Svik V.L. Televizionnaya jurnalistika, M.: "Aspekt Press", 2004g.
53. Lukina M.,Texnologiya intervyu, 2005.
54. "Radiojurnalistika". 2-izd. M "Visshaya shkola", 2004.
55. Smirnov V.V. "Janri radio jurnalistiki", Uchebnoye posobiye. M. 2004.
56. Radioefir. Sbornik, 2003.
57. Bosma ommaviy axborot vositalarida media-biznesni yuritish asoslari. Amaliy qo'llanma. T. 2008.
58. Bosma ommaviy axborot vositalari taxririylatlari uchun qo'llanma. T. 2008.
59. Gurevich. S. M. Ekonomika otechestvennix SMI. M.2004.
60. Osnovi media biznesa. M., 2001.
61. Vartanova E. Mediaekonomika zarubejnix stran. M.2003.
62. Voroshilov V.V. Jurnalistika. M., 2001.
63. Voroshilov V.V. Jurnalistika i rinok: problemi marketinga i menedjmenta.
64. Toshpo'latova N. Jurnalistikaning xalqaro huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. O'zDJTU, 2012.
65. Toshpo'latova N. Jurnalistika psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent., Sano-STANDART n-ti. 2013.
66. Shesterkina L.P., Nikolayeva T.D. Metodika televizionnoy jurnalistiki, M.: "Aspekt Press", 2012.
67. Ortikova Y. Interaktiv jurnalistika. T.: Mumtoz so'z, 2008.
68. Digital Journalism: Making News, Breaking News. US, New York, Open Society Foundations. 2014, R.364.
69. Ismailova K.F. Mejdunarodnoye radioveshaniye. T., UMED, 2006.

70. Ismailova K.F. V rejime pryamogo efira. T.: MSPJ, 2007.
71. Ismailova K.F. Golos peremen. T.: Nasaf, 2011.